

Ilmiy to'garak: "Yosh mikrobiolog" va "Yosh immunolog"

Farg'ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti "Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya" kafedrasida talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyati "Yosh mikrobiolog" va "Yosh immunolog" nomli talabalar ilmiy to'garagi orqali yo'lga qo'yilgan. To'garak faoliyati bir necha yildan beri kafedraning malakali ustozlari bilan birgalikda amalga oshirilmoqda. Unda talabalar mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya sohasidagi dolzarb muammolar hamda zamonaviy tibbiyot yondashuvlari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini tayyorlab, respublika tanlovlariga faol ishtirok etib kelishmoqda. To'garak faoliyati mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya yo'nalishlariga qiziquvchi barcha talabalarni o'z ichiga oladi. A'zolar o'z yutuqlari bilan rag'batlantirilib, kafedra bilan hamkorlikda faol ilmiy muhitda ishlashmoqda.


To'garak rahbari:

Xomidova Gulsanamxon Farxodjon qizi — Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya kafedra assitenti

To'garak sardori:

Mahmudjonova Shirin — 3-kurs "Tibbiy profilaktika ishi" yo'nalishi talabasi.





To‘garak a‘zolari soni:

Bugungi kunda “Yosh mikrobiolog” va “Yosh immunolog” ilmiy to‘garagida 30 dan ortiq talaba faol ishtirok etmoqda. Har bir talaba kafedra assistentlariga birlashtirilgan bo‘lib, ular o‘rtasida “ustoz-shogird” an‘analari muvaffaqiyatli shakllantirilgan. Kafedra yig‘ilishlarida talabalar ilmiy ish mavzularini tanlash, tadqiqot metodikasini

o'rganish, birlamchi hujjatlarni rasmiylashtirish va ilmiy hisobot yuritish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni egallab bormoqdalar. Shuningdek, talabalarning oratorlik mahoratini rivojlantirish maqsadida o'z ilmiy ishlari bo'yicha prezentatsiyalar tashkil etilib, ularning tahlili o'tkazilmoqda. Kafedra mudiri va mas'ul o'qituvchilar tomonidan institut iqtidorli talabalariga biriktirilgan ilmiy mavzular shakllantirilgan bo'lib, talabalar tezislar, maqolalar hamda ilmiy hisobotlar tayyorlab borishmoqda. To'garak a'zolari hozirgacha o'tkazilgan xalqaro va respublika olimpiadalari hamda konferensiyalarda faol ishtirok etib, ijobiy natijalar ko'rsatib kelishmoqda. Bundan tashqari, Farg'ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti "Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya" kafedrası TIJ a'zolari xalqaro va respublika OAK ro'yxatidagi ilmiy jurnallarda ilmiy rahbarlari bilan hammualliflikda maqolalar chop etib kelmoqdalar.